

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDIYEVA FLORA BOTIR QIZI

**FARMATSEVTIKA SANOATI KORXONALARINING
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of the Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Economical Sciences**

Abdiyeva Flora Botir qizi

Farmatsevtika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish
yo‘llari..... 3

Абдиева Флора Ботир кизи

Пути повышения конкурентоспособности предприятий
фармацевтической промышленности..... 26

Abdieva Flora Botir qizi

Ways to increase the competitiveness of pharmaceutical industry
enterprises..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDIYEVA FLORA BOTIR QIZI

**FARMATSEVTIKA SANOATI KORXONALARINING
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI**

08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3180 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yadgarov Akram Akbarovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.

Rasmiy opponentlar:

Muratova Shohista Nimatullayevna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-66, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-66, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____kuni tarqatildi.

(2024-yil «___» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

K.A. Sharipov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

M.K. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.U. Burxanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda farmatsevtika sanoatining ahamiyati dunyo aholisining umr ko‘rish davomiyligini oshirish bilan bir qatorda jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini ta‘minlashdagi roli tobora ortib bormoqda. Bu holat, ayniqsa COVID-19 pandemiyasi natijasida yuzaga kelgan global inqirozlar sharoitida keskin namoyon bo‘lmoqda. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti, Xalqaro farmatsevtika ishlab chiqaruvchilari va assotsiatsiyalari federatsiyasi va Butunjahon intellektual mulk tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, “2022-yil 20-aprel holatiga ko‘ra, COVID-19ning tasdiqlangan holati 50,4 millionga teng, shu jumladan, COVID-19 bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan 6,2 million o‘lim holatlari qayd etilgan”¹. Pandemiya ta‘sirini kamaytirishdan tortib, oldindan mavjud bo‘lgan kasalliklarni davolash va oldini olishda sifatli dori-vositalarini ishlab chiqish bugungi kunda global darajada aholining sog‘liqni saqlash ehtiyojlarini qondirish zaruratga aylanmoqda.

Jahonda farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, ayniqsa, tabiiy mahsulotlardan ishlab chiqarilgan dori-vositalariga bo‘lgan talab kundan-kunga oshib borishi bilan bir qatorda, yuqori sifatli dori-vositalar bilan ta‘minlashda dorivor o‘simliklardan xom ashyo sifatida foydalanish masalalari muhim ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rsatmoqda. Farmatsevtika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish orqali mahsulot sifatini oshirishga, innovatsiyalarni rag‘batlantirishga, narx siyosatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga, innovatsion jozibadorlikni oshirishga va yuqori iqtisodiy samaraga erishish orqali iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga katta e‘tibor berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda jadal ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davrida farmatsevtika sanoati taraqqiyotiga alohida e‘tibor berish lozim. 2022-yil 21-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-55-sonli farmoni qabul qilingan. Shunga ko‘ra, mahalliy dori vositalari ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta‘minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish vazifasi qo‘yilgan². Farmon doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, importga qaramlikni kamaytirish, dori-darmon hamda ularning xom ashyo vositalari eksporti sezilarli darajada ortishiga xizmat qilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “...dorivor o‘simliklar yetishtirish, ularni qayta ishlash, investitsiyalar jalb etib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun keng sharoitlar yaratildi. Bularning natijasida so‘nggi besh yilda 71 ta yangi korxonalar tashkil etilib, 2 ming 500 dan ortiq turdagi dori vositalari, 241 turdagi tibbiy buyumlar va 78 turdagi tibbiy texnika ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qariyb 2 barobarga oshdi. Lekin, bu natijalar hali yetarli emas. Bugungi kunda mahalliy korxonalar ichki bozor talablarini natural hajmda

¹ World health statistics 2022: monitoring health for the SDGs, sustainable development goals. <https://www.who.int/publications/i/item/9789240051157>.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi “2022-2026-yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-55-son farmoni <https://lex.uz/docs/-5834287#-5835126>.

55 foizga ta'minlamoqda, xolos"³. Mazkur vazifalarni hal etishda farmatsevtika korxonalari raqobatbardoshligi va mahsulotlar sifatini oshirish, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsion aloqalarni takomillashtirish, mahalliy xom ashyo sifatida tabiiy o'simliklarning mavjud zahirasidan samarali foydalanish, farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalarni klasterlash asosida rivojlantirish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-iyuldagi PQ-3137-son "Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 18-fevraldagi PQ-3532-son "Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish konsepsiyasi, 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-son "2022-2026-yillarda Respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shiddatli raqobat sharoitida farmatsevtika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, A. Smit, P. Druker, R. Nelson, Y. Shumpeter, B. Lundval, D. Tapskott, M. Porter, B. Grinvald, J. Kan, B. Richman, J. Love, T. Xabbard va H.R. Rasekh, H. Xiong⁴ kabi olimlarning

³ "Yangi O'zbekiston" Ijtimoiy –siyosiy gazeta. Farmatsevtika tarmog'idagi loyihalar ko'rib chiqildi Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-sentyabr kuni farmatsevtika tarmog'ida amalga oshirilgan ishlar hamda istiqboldagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi. №178 (434), 2021-yil 7-sentabr.

⁴ Smith, Adam. An Inquiry Into the Nature and Causes of the Wealth of Nations. By Adam Smith. In Two Volumes. of 2, Volume 1. Соединенные Штаты Америки: Creative Media Partners, LLC, 2018; Drucker, P. (2010). The Practice of Management ([edition unavailable]). HarperCollins. Retrieved from <https://www.perlego.com/book/584530/the-practice-of-management-pdf> (Original work published 2010); Nelson, R.R. and Winter, S.G. (1982). An Evolutionary Theory of Economic Change. Harvard University Press. Nelson, R.R. and Winter, S.G. (1985). "An evolutionary theory of economic change: Response to comments" Journal of Economic Literature, 23(4), pp. 1790-1794. Joseph Alois Schumpeter. Oxford University Press, 1961. ISBN 0195004612, 9780195004618. 255 p. Lundvall, B.Å., and Nielsen, P. (2007). "Competition and transformation in the learning economy: Illustrations from the perspective of Danish and Norwegian innovation policy" Industry and Innovation, vol. 14, no. 3, pp. 253-277. Tapscott, D. (1995). The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. McGraw-Hill. Porter, Michael E.. Competitive Advantage of Nations: Creating and Sustaining Superior Performance. Великобритания: Free Press, 2011. Greenwald Bruce C, Kahn Judd. Competition Demystified: A Radically Simplified Approach to Business Strategy. Соединенные Штаты Америки: Penguin Publishing Group, 2005; Barak Richman. (2006). "Competition Policy and the Pharmaceutical Industry: The European and American Approaches Compared." International Journal of the Economics of Business, 13(2), 161-177. James Love and Tim Hubbard. (2014). "Competition Policy, Innovation, and Access to Medicines." Health Affairs, 33(8), 1468-1477; Rasekh HR, Mehralian G, Vatankhah-Mohammadabadi AA. Situation analysis of R & d activities: an empirical study in Iranian pharmaceutical companies. Iran J Pharm Res. 2012 Fall;11(4):1013-25. PMID: 24250532; PMCID: PMC3813171; Xiong Hua, The thesis submitted to The University of Manchester for the degree of Doctor of Business Administration in the Faculty of Humanities 2019.

ilmiy ishlari bu borada alohida ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida farmatsevtika sanoatining raqobatbardoshligini oshirish masalalari G. Vitkovskaya, E. Dzyuba, A. Bekarev, S. Bekareva, A. Almurzaeva, E. Sapir, I. Karachev, M. Spanov, D. Jantemirova, S. Garbatsevich, I. Gorin, O. Jdanova⁵ kabi olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda farmatsevtika sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirish masalalari, tarmoqda mavjud muammolar va ularning yechimlari raqobatbardoshlikka innovatsion jarayonlarning ta'siri masalalariga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish masalalari S. G'ulomov, N. Jumaev, D. Raxmonov, B. Salimov, M. Tashxodjaev, X. Djalilov, A. Yunusxo'jayev, R. Toshmuxeimedov, X. Zaynutdinov, R. Ziyayev, Sh. Umarova, J. Axmedov, B. Bobojonov⁶ kabi olimlarning raqobatbardoshlikni oshirishda marketing strategiyalaridan samarali foydalanish, soha faoliyatini moliyalashtirish, innovatsion jarayonlarini boshqarish hamda investitsion jozibadorligini oshirish kabi ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

Keltirilgan tadqiqotlarda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamiga qaramay, farmatsevtika korxonalari raqobatbardoshligini oshirish yo'llarini tadqiq etish, farmatsevtika bozorida ishlab chiqaruvchi va iste'molchi talab va taklifga ta'sir etuvchi omillarni so'rovnoma orqali aniqlash, farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalarining tarmoq rivojlanishidagi ahamiyatini oshirish, hududlarda farmatsevtikaga ixtisoslashgan EIZ larni klasterlash asosida rivojlantirishda hududning

⁵ Vitkovskaya, G. M., Kuznetsova, O. A., & Tsvetkov, V. A. (2019). Innovative development of pharmaceutical companies: problems and solutions. *Problems of Modern Economy*, 2(70), 124-127. Dzyuba, Y. (2016). Assessment of the competitiveness of the pharmaceutical industry in Ukraine. *Eastern-European Journal of Enterprise Technologies*, 5(8), 45-51. Bekarev, A. & Bekareva, S. (2015). Competitiveness of national pharmaceutical industry: The Russian case. 7. 710-715. альмураева, А.А & Жакипбеков, К.С & Датхаев, У.М & Аширов, М.З & Датхаева, З.А. (2022). Competitiveness of pharmaceutical industry: indicators and evaluation criteria. *Farmacîa Kazahstana*. 4-9. 10.53511/pharmkaz.2022.26.21.001; Сапир Е.В., Карачев И.А. 2016. Особенности мирового фармацевтического рынка и проблемы его освоения российским компаниями. *Российский внешнеэкономический вестник*. №8. С. 97-111; Сапир Е.В., Карачев И.А. 2017. Общий фармацевтический рынок ЕАЭС и Евразийская интеграция. *Современная Европа*. № 2. С. 121-134; Spanov M.U., Orynbet P.Z. Competitiveness and development pharmaceutical industry of kazakhstan. *Economics: the strategy and practice*. 2019;14(3):69-84. (In Russ.); Джантемирова Д. М. Пути повышения конкурентоспособности в обрабатывающей про-мышленности Казахстана: дисс.. PhD - «Экономика, теория управления». - Алматы, 2010. -124 с; Организационно-экономический механизм обеспечения конкурентоспособности продукции предприятий Республики Беларусь : Дис. на соиск. учен. степ. канд. экон. наук : 08.00.05 : Защищена 21.11.02 : Утв. 25.06.03 / Гарбацевич Сергей Леонидович; Использование инструментов и методов менеджмента при формировании стратегии повышения конкурентоспособности промышленного предприятия: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук : 08.00.05 / Горин Иван Александрович; [Государственное образовательное учреждение высшего профессионального образования "Мордовский государственный университет им. Н. П. Огарева"]; Кластерная стратегия управления промышленными предприятиями как фактор повышения конкурентоспособности : автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук : 08.00.05 / Жданова Олеся Игоревна; Российская академия наук, Институт экономики;

⁶ Гулямов С.С. Конкурентоспособность национальной транспортной компании, Материалы республиканской научно-практической конференции «Уроки кризиса и инновационная модель экономического развития в условиях глобализации», Том 1, Институт экономики АНРУз., Т., Экономика, 2010 г., 49-53 с; Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. –Т: IQTISODIYOT, 2019.; Toshmuxeimedov E.R. Farmatsevtika iqtisodiyoti: Darslik / Toshmuxeimedov E.R., Zaynutdinov X.S., Ziyayev R.Z. va boshq.; E.R. Toshmuxeimedov tahriri ostida; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziriigi, Toshkent farmatsevtika instituti. –Т.: «IqtisodMoliya», 20Q8. - 352 b.; Umarova, Shakhnoz. (2019); Ж.Ахмедов Хорижий инвестицияларни жалб этишинг молиявий-иктисодий самарадорлиги. Иктисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун дисс. ... автореф. – Тошкент, 2019-й.

dorivor o‘simliklar zahirasidan xom ashyo sifatida samarali foydalanish masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining tadqiqot olib borilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot rejasini № OT-F1-155 “Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash sharoitida xarajatlar miqdorini kamaytirish, tarkibini takomillashtirishning fundamental asoslarini ishlab chiqish” (2017-2020-yillar.) mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi farmatsevtika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

farmatsevtika sanoatining raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish;
farmatsevtika sanoati mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari va iste’molchilari talab va taklifini, unga ta’sir etuvchi omillarni ekspert so‘rovnomalari asosida baholash;

farmatsevtika korxonalarini raqobatbardoshligini kompleks baholovchi shkala ishlab chiqish;

farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni tahlil qilish;

farmatsevtika sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini ta’minlashda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tahlil qilish va holatini baholash;

farmatsevtika sanoat korxonalarini klaster asosida rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganish;

dorivor o‘simliklarni chuqur qayta ishlash jarayonini klaster asosida rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

farmatsevtika sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan farmatsevtika korxonalarini hamda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalar faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti. Farmatsevtika sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish sohasidagi vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy tadqiqot ishidagi muammoni o‘rganish uchun mantiqiy fikrlash, tizimli yondoshuv, iqtisodiy taqqoslash, statistik tahlil, kuzatuv va qiyosiy tahlil, ekspert so‘rovnoma usuli, SWOT, ko‘p omilli korelyatsion regression ekonometrik tahlil hamda iqtisodiy-statistik tahlil va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“kompleks baholash” uslubiy yondashuvga ko‘ra, farmatsevtika sanoati korxonalarini raqobatbardoshlik darajasini iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, innovatsion, logistik, huquqiy va ekologik mezonlari asosida $0 < K_{raq} \leq 10$ chegaraviy qiymatlar

oralig'ida past ($0 < K_{\text{quyi}} \leq 5$), o'rta ($5 < K_{\text{o'rta}} \leq 7$) va yuqori ($7 < K_{\text{yuqori}} \leq 10$) darajasiga ko'ra baholashning nazariy jihatlari asoslab berilgan;

“Bo'stonliq-farm” erkin iqtisodiy zonasida faoliyat yurituvchi 5 ta korxonaning dori vositalar ishlab chiqarish, saqlash va dorivor o'simliklarni quritish jarayoni uchun zarur bo'lgan tabiiy gaz ta'minotini “Biogaz texnologiyasi” asosida qondirish taklifi asoslangan;

farmatsevtika sanoatini raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo'lgan laboratoriyalar, tajriba-sinov maydonchalari, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlari va ishlab chiqaruvchi korxonalarining bir nuqtada joylashuvi iqtisodiy va geografik samarani ta'minlashida tabiiy turdagi dori vositalar ishlab chiqarish klasterining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi asosida sinergiya samarasini aniqlash taklifi asoslangan;

farmatsevtika mahsulotlari eksporti, importi va asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2023-2027-yillarga prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

farmatsevtika sanoati rivojlanishiga va raqobatbardoshligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar guruhlashtirilgan;

farmatsevtika korxonalari raqobatbardoshligiga va dori-vositalar iste'molchilari talabiga ta'sir etuvchi omillar ekspert so'rovnomalari natijasi asosida tabiiy dori vositalariga bo'lgan talab yuqori ekanligi asoslab berilgan;

farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirish yo'llari sifatida foydalaish imkoniyatlari asoslangan;

farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalar klasterlash asosida rivojlantirish yondashuvi taklif etilgan;

farmatsevtika korxonalarini raqobatbardoshligini kompleks mezonlar asosida baholash imkonini beruvchi shkala ishlab chiqilgan;

asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni oshirishga ko'ra rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi, “Zomin-farm”, “Kosonsoy-farm”, “Bo'stonliq-farm”, “Sirdaryo-farm”, “Parkent-farm” va “Andijon-farm” erkin iqtisodiy zonalar direksiyalari, S.Q.Islombekov nomidagi “O'zkiimyofarm” AJ va “Samarqand dori-darmon” AJ rasmiy ma'lumotlari asosida olingan xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalardan farmatsevtika korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda va farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalar klasterlash asosida rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati farmatsevtika korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga va farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalar klasterlashga doir dasturlar va strategik rejalarini ishlab chiqishda,

farmatsevtik erkin iqtisodiy zonalarni takomillashtirishda yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda va tarmoqni rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar hamda maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yuzasidan olingan ilmiy natijalar va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

“kompleks baholash” uslubiy yondashuvga ko'ra, farmatsevtika sanoati korxonalarini raqobatbardoshlik darajasini iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, innovatsion, logistik, huquqiy va ekologik mezonlari asosida $0 < K_{raq} \leq 10$ chegaraviy qiymatlar oralig'ida past ($0 < K_{quyi} \leq 5$), o'rta ($5 < K_{o'rta} \leq 7$) va yuqori ($7 < K_{yuqori} \leq 10$) darajasiga ko'ra, baholashning nazariy jihatlari 70310102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi talabalari uchun tavsiya etilgan “Korporativ strategiya” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2023-yil 26-iyundagi 211-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, farmatsevtika sanoati korxonalarini raqobatbardoshlik darajasini “kompleks baholash” tamoyili yondashuviga ko'ra, farmatsevtika sanoati korxonalarini raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda past ($0 < K_{quyi} \leq 5$), o'rta ($5 < K_{o'rta} \leq 7$) va yuqori ($7 < K_{yuqori} \leq 10$) darajasiga ko'ra, baholashning nazariy-uslubiy asoslari takomillashtirilib, oliy ta'lim tizimi talabalari tomonidan ushbu soha bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yanada kengaytirish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, S.Q. Islombekov nomidagi “O'zkimyofarm” AJning raqobatbardoshlik darajasini aniqlashda foydalanilgan (S.Q. Islombekov nomidagi “O'zkimyofarm” AJning 2022-yil 11-yanvardagi №8-son ma'lumotnomasi). Mazkur shkala bo'yicha S.Q. Islombekov nomidagi “O'zkimyofarm” AJ $5 < 5,25 \leq 7$ o'rta darajadagi raqobatbardosh korxonalar ekanligi va korxonalar raqobatbardoshlik darajasini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni aniqlash imkonini bergan;

“Bo'stonliq-farm” erkin iqtisodiy zonasida faoliyat yurituvchi 5 ta korxonaning dori vositalar ishlab chiqarish, saqlash va dorivor o'simliklarni quritish jarayoni uchun zarur bo'lgan tabiiy gaz ta'minotini “Biogaz texnologiyasi” asosida qondirish taklifi “Bo'stonliq-farm” erkin iqtisodiy zona direksiyasi korxonalarining tabiiy gaz ta'minotida foydalanilgan (“Bo'stonliq-farm” erkin iqtisodiy zona direksiyasining 2023-yil 16-oktabrdagi №113-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy qilish natijasida “Bo'stonliq-farm” erkin iqtisodiy zonasida faoliyat yurituvchi 5 ta korxonaning gaz iste'molini 27 500 000 so'mlik xarajatlar smetasi asosida ta'minlash imkonini bergan;

farmatsevtika sanoatini raqobatbardoshligini oshirish uchun zarur bo'lgan laboratoriyalar, tajriba-sinov maydonchalari, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot institutlari va ishlab chiqaruvchi korxonalarining bir nuqtada joylashuvi iqtisodiy va geografik samarani ta'minlashida tabiiy turdagi dori vositalar ishlab chiqarish klasterining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi asosida sinergiya samarasini aniqlash taklifidan “Bo'stonliq-farm”, “Kosonsoy-farm” va “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zona direksiyalari faoliyatida foydalanilgan (“Bo'stonliq-farm” erkin iqtisodiy zona direksiyasining 2023-yil 16-oktabrdagi № 113-son, “Kosonsoy-farm” erkin iqtisodiy

zona direksiyasining 2023-yil 18-oktabrdagi № 1/10-23-son hamda “Parkent-farm” erkin iqtisodiy zona direksiyasining 2023-yil 18-oktabrdagi № 23-31-sonli ma’lumotnomalari). Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etilishi natijasida erkin iqtisodiy zonalarda joylashgan korxonalarining kavrak, za’faron va qizilmiya dorivor o’simliklar asosida virusga qarshi tabiiy turdagi dori vositalari hamda biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqarishga, shuningdek, korxonalarining operatsion samaradorligi ortishiga, hududning dorivor o’simliklar xom ashyo bazasini chuqur qayta ishlash asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyatini yanada kengaytirishga xizmat qilgan;

farmatsevtika mahsulotlari eksporti, importi va asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 2023-2027-yillarga prognoz ko‘rsatkichlaridan Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi tomonidan farmatsevtika sanoatini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining 2023-yil 16-oktabrdagi № 06/2456-sonli ma’lumotnomasi). Prognoz hisob-kitoblariga ko‘ra, 2027-yilga kelib 2022-yilga nisbatan import hajmi 3,3 barobar, eksport hajmi esa, 2,4 barobar oshishi, asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish hajmi esa, 2027-yilda 14920,7 milliard so‘m bo‘lishi kutilmoqda. Ilmiy natijalardan foydalanish Respublika farmatsevtika sanoati imkoniyatlarini prognoz ko‘rsatkichlariga ko‘ra qayta baholash, hamda ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish va samaradorlikni oshirishning qo‘shimcha imkoniyatlarini aniqlashga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, mahalliy jurnallarda 4 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, shartli belgilar va atamalar ro‘yxati, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 160 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti asoslangan, olingan natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining sinovdan o‘tishi yoritib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Farmatsevtika sanoati rivojlanishining ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida farmatsevtika sanoati va ishlab chiqarish korxonalarini rivojlanishining nazariy-uslubiy asoslari, farmatsevtika sanoati korxonalarini rivojlantirishda omillar ta’sirini baholash, farmatsevtika sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishning xorij tajribasi o‘rganilgan.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, farmatsevtika sanoati korxonalarini raqobatbardoshligini oshirishda “Farmatsevtika korxonalarini raqobatbardoshligi”

tushunchasi tavsifiga mualliflik yondashuvi asosida aniqlik kiritildi. Unga ko‘ra, *“Farmatsevtika korxonalarini raqobatbardoshligi deganda sanoatning murakkab landshaftiga va o‘zgaruvchan bozor dinamikasiga doimiy moslashish orqali iste‘molchilar talabini yuqori sifatli, innovatsion tadqiqotlar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan qondirish orqali bozorda samarali raqobatlashish qobiliyati tushuniladi”*.

Ilmiy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, raqobat nazariyasini davrlarga bo‘lib o‘rganish, raqobatning o‘z davriga xos jihatlaridan kelib chiqqan. Ammo, bugungi kunga kelib zamonaviy raqobat nazariyalari ham rivojlanib raqobatning usul va uslublariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot doirasida farmatsevtika sanoati va korxonalarining rivojlanishi va raqobatbardoshligiga ta‘sir etuvchi omillar guruhlashtirilgan (1-rasm).

Aholi o‘rtasida 2022-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, birinchi marta tashxis bilan qayd qilingan kasalliklarga chalinish turlari bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich nafas organlari kasalliklari ulushiga to‘g‘ri kelib, har 100 ming aholidan 13 ming nafarida ushbu kasallik bilan kasallanish holatlari kuzatilmoqda. Bu esa, bevosita respirator kasalliklarini davolash uchun ishlatiladigan dori vositalariga bo‘lgan talabni oshishiga va sotuv hajmining ko‘payishiga olib keladi.


1-jadval.

O‘zbekiston aholisining eng ko‘p qaysi turdagi kasalliklarga chalinish ko‘rsatkichlari⁷

| T/r | Har 100 ming aholiga nisbatan birinchi marta tashxis bilan qayd qilingan jami kasalliklar soni | Ming birlikda |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| 1 | Nafas organlari kasalliklari(resperator kasalliklar) | 13 |
| 2 | Ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklari | 11 |
| 3 | Qon va qon yaratish a‘zolari kasalliklari, immun mexanizmiga ta‘sir etuvchi ayrim buzilishlar | 5 |
| 4 | Siydik tanosil tizimi kasalliklari | 5 |
| 5 | Qon aylanish tizimi kasalliklari | 3 |
| 6 | Jarohatlanish, zaharlanishlar va ayrim tashqi sabablar bilan bog‘liq asoratlar | 3 |
| 7 | Ko‘z va uning qo‘shimcha apparati kasalliklari | 3 |
| 8 | Asab tizimi kasalliklari | 3 |
| 9 | Ba‘zi yuqumli va parazitlar kasalliklar | 2 |
| 10 | Quloq va so‘rg‘ichsimon o‘simta kasalliklari | 2 |

O‘zbekistonda 4 500 ga yaqin o‘simlik turlari o‘sadi, 51 ta farmatsevtika korxonasi dorivor o‘simliklarni qayta ishlash bilan shug‘ullanadi. Biroq, O‘zbekistonning dorivor o‘simliklar yetishtirish salohiyatidan yetarli darajada to‘liq foydalanilmayotganligi, bu esa, dorivor o‘simlik xom ashyo asosida talab yuqori bo‘lgan dori vositalarini chuqur qayta ishlash orqali tayyor mahsulot ishlab chiqarishning yetarli darajada emasligiga olib kelmoqda. Buning natijasida, xom ashyo importiga qaramlik yuzaga kelmoqda. Jahon bozori tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, dorivor o‘simliklarni import qiluvchi AQSH, Xitoy, Germaniya va Yevropa Ittifoqi kabi mamlakatlarda O‘zbekiston hududida o‘suvchi kavrak, qizilmiya va za‘faron kabi o‘simliklarni narx raqobati borasidagi ustunlikka ega ekanligini e‘tirof etishmoqda.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



1 - rasm. Farmatsevtika sanoati korxonalarini rivojlanishi va raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillar guruhlanishi ⁸

⁸Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan ayrim kamchilik va salbiy jihatlariga qaramay, jahon tajribasi dorivor o‘simliklardan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ilmiy tadqiqot institutlari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarining afzallik tomonlari va samarasi yuqori ekanligini tasdiqlab kelmoqda.

Tadqiqotlar natijasida xorijiy tajribalardan ma’lum bo‘ldiki, farmatsevtika sanoati korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda quyidagi davlatlarning tajribalari muhim sanaladi. Jumladan, AQSH, Xitoy, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Ispaniya, Hindiston, Belarusiya, Shveysariya, Rossiya, Singapur singari davlatlar farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligi borasida katta tajribaga ega davlatlar sanaladi.

Jahon farmatsevtika bozori 2022-yilda taxminan 1,48 trillion AQSH dollarini tashkil qildi. AQSH dunyo farmatsevtika bozorida 42,6 foiz ulushga ega bo‘lishi va raqobatbardosh ustunlikni ta’minlovchi jihatlari shundaki, ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga bo‘lgan investitsiya hamda kadrlar salohiyati asos bo‘lib xizmat qilgan.

Ilmiy izlanishlar natijasida rivojlangan mamlakatlar sanoat va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishdagi tajribalaridan O‘zbekiston farmatsevtika sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda samarali foydalanish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Farmatsevtika sanoati tarmog‘i va ishlab chiqarish korxonalari faoliyati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida farmatsevtika sanoati va korxonalar faoliyati tahlil qilingan.

2022-yilda O‘zbekistonda farmatsevtika sohasida ichki bozor hajmi 1,5 mlrd. dollarni tashkil etib, uning 25 foizi mahalliy ishlab chiqarish hisobiga ta’minlandi.


2022-yilda farmatsevtika korxonalari soni 4 taga oshdi, 284 turdagi dori vositalari, 80 turdagi tibbiy buyumlar, 13 turdagi tibbiy texnika, shu jumladan, stomatologiya, onkologiya, toksikologiya hamda pulmonologiya guruhlariga kiruvchi dori vositalarini mahalliyashtirish darajasi oshdi.

O‘zbekistonda bugungi kunda farmatsevtika dori vositalarini ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 181 tani tashkil etadi⁹. O‘zbekiston farmatsevtika sanoati biologik zahiradan samarali foydalanish darajasi yildan yilga oshib, o‘simlik xom ashyosi ishlab chiqaruvchilar 105 tani tashkil etgan.

Mamlakatda farmatsevtika mahsulotlari eksporti va importi ko‘rsatkichlarini kuzatadigan bo‘lsak, import darajasi eksport darajasiga nisbatan juda yuqori bo‘lib, aholining dori-darmonga bo‘lgan ehtiyojning 50 foizidan ko‘proq qismi import hisobidan ta’minlanadi. Farmatsevtika sanoati eksporti hajmi 24 980,2 ming dollarni tashkil etgan bo‘lsa, importi hajmi 1 584 968,8 ming dollarga yetgan, bu ko‘rsatkich eksportga nisbatan import hajmi 63,5 barobar yuqori demakdir¹⁰.

⁹ Sogliqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining rasmiy sayti ma’lumotlari <https://uzpharmagency.uz/>.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari.



2-rasm. Respublika miqyosida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari¹¹

Shuningdek, farmatsevtika korxonalari raqobatbardoshligi va iste'molchilar talabi ekspert so'rovnomalari asosida tahlil qilingan, hamda ushbu so'rovnomalarda mavjud muammolar o'rganilgan. Bundan tashqari, farmatsevtika sanoati rivojlanishi va korxonalarining raqobatbardoshligini kompleks baholovchi 7 ta mezon asosida korxonaning iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, innovatsion, logistik, huquqiy va ekologik ko'rsatkichlari asosida shkala ishlab chiqilgan va baholangan. SWOT-tahlil texnikasidan foydalangan holda, farmatsevtika sanoatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyat va tahdidlari tahlil qilingan. Farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalarining ishlab chiqarish ko'rsatkichlari taqqoslama tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqot doirasida farmatsevtika korxonalarining raqobatbardoshligini o'lchash uchun korxonaning iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, innovatsion, logistik, huquqiy va ekologik tomonlarini hisobga olgan holda quyidagi farmatsevtika korxonalari raqobatbardoshligini baholovchi shkala ishlab chiqildi. Ushbu shkala 7 xil mezon orqali baholanadi. Har bir mezonga 1-10 ball oralig'ida ball berilgan.

Shkalaning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

$$0 < K_{raq} \leq 10$$

Shkala natijalariga ko'ra:

$0 < K_{quyi} \leq 5$ oraliqda past darajadagi raqobatbardosh korxonalar,

$5 < K_{oirta} \leq 7$ oraliqda o'rta darajadagi raqobatbardosh korxonalar,

$7 < K_{yuqori} \leq 10$ oraliqda yuqori darajadagi raqobatbardosh farmatsevtika

korxonasi deb xulosa qilish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida S.Q. Islombekov nomidagi "O'zkimyofarm" AJ va "Samarqand dori-darmon" AJning ko'rsatkichlari shkala asosida taqqoslama hisob-kitoblar amalga oshirilgan (2-jadval).

¹¹ Muallifning ilmiy tadqiqotlari natijasidan olingan.

S.Q.Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” va “Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyatlarining farmatsevtika raqobatbardoshlik shkalasi asosida olingan ko‘rsatkichlari¹²

| № | Ko‘rsatkichlar nomi | S.Q. Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” aksiyadorlik jamiyati | | “Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati | |
|-----------------------|-------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|---------------|--------------------------------------------------|---------------|
| | | Hisoblangan qiymat | Berilgan ball | Hisoblangan qiymat | Berilgan ball |
| 1 | Tadqiqot va innovatsiyalar - RI | | 8 | | 5 |
| 2 | Bozor ulushi- $MS:MS = \left(\frac{RC}{TC}\right) * 100\%$ | 3,8% | 5 | 3,06% | 4 |
| 3 | Normativ muvofiqlik-RC | | | | |
| | Xalqaro: GMP | - | 0 | + | 1,25 |
| | GDP | - | 0 | + | 1,25 |
| | GLP | - | 0 | | |
| | GCP | - | 0 | | |
| | GPP | - | 0 | | |
| | ISO | 9001:2008 | 1,25 | 9001:2009 | 1,25 |
| | Milliy: muvofiqlik serifikati | O‘zst | 1,25 | O‘zst | 1,25 |
| Milliy GMP sertifikat | + | 1,25 | + | 1,25 | |
| 4 | Moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida-FP | | | | |
| | Operatsion samaradorlik $R = \frac{T^s}{X^s}$ | 1,46 | | 1,16 | |
| | Yalpi foyda marjasi $GPM = \left(\frac{GP}{TR}\right) * 100\%$ | 31,43% | 5 | 14,17% | 4 |
| | Investitsion rentabellik: $ROI = \left(\frac{NP}{TI}\right) * 100\%$ | 4,2% | | 5,02% | |
| 5 | Global integratsiya-GI | + | 5 | + | 4 |
| 6 | Ta‘minot zanjiri samaradorligi-SCE | - | 0 | + | 10 |
| 7 | Ekologik mas‘uliyat-ER | + | 10 | + | 5 |
| | Jami | | 36,75 | | 38,25 |

Farmatsevtika raqobatbardoshlik shkalasi=(RI+MC+RC+FP+GI+SCE+ER)/7
S.Q. Islombekov nomidagi “O‘zkimyofarm” aksiyadorlik jamiyati uchun hisoblangan qiymat: $FRSH=(8+5+3,75+5+5+10)/7=5,25$ ballni tashkil etdi. Demak, korxonada $5 < 5,25 \leq 7$ o‘rta darajadagi raqobatbardosh hisoblanadi.

“Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati uchun hisoblangan qiymat: $FRSH=(5+4+6,25+4+4+10+5)/7=5,46$.

“Samarqand dori-darmon” aksiyadorlik jamiyati $5 < 5,46 \leq 7$ o‘rta darajadagi raqobatbardosh farmatsevtika korxonasi deb xulosa qilish imkonini berdi.

Korxonalarining farmatsevtika raqobatbardoshlik mezonlari asosidagi yig‘ilgan past

¹² Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

ballaridan korxonaning zaif nuqtalarini aniqlash mumkin. Kelgusida korxonaning aynan shu zaif tomonlarini rivojlantirishga qaratilgan startegik chora-tadbirlarni ko‘rishi, kelajakda yuqori darajadagi raqobatbardosh farmatsevtika korxonasiga aylanishiga imkoniyat beradi. Investorlar va hamkorlarning investitsion aloqalarini kuchaytirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu ko‘rsatkichlar korxonalarining raqobatbardoshlik darajasini 7 xil mezonlar asosida baholashga imkoniyat beradi. Chunki, raqobatbardoshlik – bu mahsulot sifati, innovatsiya, marketing, mijozlar ehtiyojini qondirish, ta‘minot zanjiri samaradorligi, rentabellik va ekologik omillarni o‘z ichiga olgan yanada keng qamrovli tushuncha. Shuning uchun, korxonaning raqobatbardoshligini baholashda korxonaning tashqi va ichki omillari kompleks tahlillari talab etiladi.


Hududlarda maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish, ularni zarur infratuzilma bilan ta‘minlash, majmualarni yaxlit joylashuvi, qulay kommunikatsiya evaziga sanoat rivojiga turtki bo‘ladi. O‘tgan besh yilda yurtimizda qo‘shimcha 19 ta erkin iqtisodiy zona va 400 dan ziyod kichik sanoat zonasi tashkil etilib, mingdan ortiq innovatsion loyiha amalga oshirildi¹³.

“Zomin-farm” va “Kosonsoy-farm” EIZlarida plantatsiya uchun yer maydonlari ajratilgan bo‘lib, ushbu plantatsiyalarda dorivor o‘simliklarni yetishtirish va ular asosida tabiiy dori-vositalarini ishlab chiqarishni tashkil qilish imkonini beradi. Dorivor o‘simliklar bozori tahliliga ko‘ra, O‘zbekiston dorivor o‘simliklarni asosan xom ashyo sifatida yetkazib beruvchi mamlakat hisoblanadi. Ammo, ikkilamchi qayta ishlash va tayyor mahsulot olish yo‘lga qo‘yilsa iqtisodiy samara yanada oshadi.

Izlanishlar natijasida, farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalarning raqobatbardoshlik darajasini oshirishga va rivojlanishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator muammolar aniqlandi. Farmatsevtikaga ixtisoslashgan EIZ lar faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishda muhandislik-kommunikatsiyalar bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelmoqda. Elektr energiya tarmog‘idagi uzilishlar sababli dori-darmon ishlab chiqarish jarayonlari to‘xtab qolmoqda. Natijada, uzilish oqibatidagi dorilar yaroqsiz holga kelib, ko‘rilgan zarar hech kim tomonidan qoplanmaslik holatlari kuzatilmoqda. Bu esa, korxonalar iqtisodiy jihatdan zarar ko‘rishiga olib kelmoqda.

Bundan tashqari, farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalarda faoliyat yurituvchi korxonalarining ishlab chiqarayotgan mahsulotlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, asosan tayyor tibbiy mahsulotlar ishlab chiqarilayotganligini kuzatish mumkin. Masalan, eritmalar uchun shisha idishlar, bog‘lov vositalari, bir martalik rezina qo‘lqoplar, paxta va bint kabi mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Aholi salomatligi uchun muhim bo‘lgan dori vositalari ishlab chiqaruvchi korxonalar sanoqli. O‘zbekiston hududida dori vositalarini tayyorlash uchun sintetik xom ashyoning yetarli emasligi buning asosiy sababidir. Shuningdek, farmatsevtika sanoati raqobatbardoshlik darajasiga ta‘sir qiluvchi muammolar aniqlandi (3-rasm).

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti <https://president.uz/oz/lists/view/5810>



3-rasm. Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qiluvchi muammolar¹⁴

Mavjud muammolarni bartaraf etish mahsulot sifatiga, farmatsevtik EIZ lar faoliyatini rivojlantirish va ularga ichki va tashqi investitsiyalarni keng jalb etish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish taklif etilgan:

- yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirish;
- mamlakatimizda farmatsevtik texnoparklar tashkil etish va ularni yuqori ilmiy-texnikaviy, katta tajriba, bilim va salohiyatga ega malakali mutaxassis-kadrlarga ega

¹⁴ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari hamda EIZ lar bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatishni rivojlantirish;

– farmatsevtik EIZ larni klasterlash asosida rivojlantirish;

– farmatsevtik EIZ larda yuzaga kelayotgan elektr tarmog'idagi uzilishlarni vaqtincha ta'minlash maqsadida "biogaz" texnologiyasini yo'lga qo'yish taklifi berildi.

Tadqiqot jarayonida "Bo'stonliq-farm" EIZ da raqobatbardoshlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan tabiiy gaz muammosi: EIZ da faoliyat yurituvchi korxonalarining boshqaruv xonalarini isitishda, dori vositalarini saqlashda va dorivor o'simliklarni quritishda tabiiy gaz muammosi yuzaga kelmoqda. Bo'stonliq tog'li hudud bo'lganligi uchun qish oylarida gaz bilan bog'liq muammolar yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu muammoga hududning resurs zahirasidan kelib chiqib "Biogaz" texnologiyasi asosida yechim ishlab chiqildi.

